
Maktab yarmarkalari: AHOLIGA QULAYLIKLAR YARATILMOQDA

Yangi o'quv yili boshlanishi oldidan shahar markazidagi Savdo majmusida arzonlashtirilgan maktab yarmarkasi faoliyat ko'rsatmoqda. Yarmarkada o'quvchilar uchun zarur bo'lgan barcha turdagi o'quv qurollari arzon narxlarda sotilmoqda. Yarmarkada o'quv qurollarini ishlab chiqaruvchi tadbirkorlarimizga ham alohida rastalar ajratilgan bo'lib, bu narxlarni arzon bo'lishiga asos bo'lmoqda.

Bozor hududida savdogarlar hamda xaridorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Narx-navoni su'niy oshirilishiga yo'l qo'ymaslik bo'yicha ham zaruriy choralar ko'rilgan. Yangi o'quv yili oldidan tashkil etilgan arzonlashtirilgan maktab yarmarkalari 5 sentyabr kuniga qadar faoliyat ko'rsatadi.

2023-08-28 11:05:02